



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИШ

Илимий-методикалық журнал

№ 1/3 2025



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки





МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

1/3-сан 2025

январь - февраль

*Қарақалпақстан Республикасы мектепке шекемги хәм мектеп билимлендириўи
министрлиги, Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Хушбоқ НОРБҰТАЕВ
Сапардурды АБАЕВ	Ойниса МУСУРМОНОВА
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Сафо МАТЧОН
Мавлюда АЧИЛОВА	Шукурилло МАРДОНОВ
Азизжан АБДАЗИМОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Шухрат АБДУЛЛАЕВ	АбдимураТЕСЕМУРАТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Даулетназар СЕЙИТКАСЫМОВ
Злийха ОРАЗЫМБЕТОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Мансурбек ОНГАРОВ	Раъно ОРИПОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Норим РАХМАНОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Муқаддас РАХМАНОВА
Марифжон АХМЕДОВ	Светлана СМЕРНОВА (Москва, Россия)
Гулзабира БАБАШЕВА	Тажибай САПАРБАЕВ
Умида БАҲАДИРОВА	Мухаббат САЛАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Гўзал СОДИҚОВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Улбосын СЕЙТЖАНОВА
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Комил ГУЛЯМОВ	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Қуанишбек ТҮРЕКЕЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Дилдора ДАВРОНОВА	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди ҚАМАЛОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Тажикал ҚУДАЙБЕРГЕНОВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Ойбахор ШАМИЕВА
Шохида ИСТАМОВА	Ризамат ШОДИЕВ
ВОХИД КАРАЕВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Мохира КУВВАТОВА	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Джавдод ПЎЛАТОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Пердебай НАЖИМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Асқарбай НИЯЗОВ	Қонысбай ЮСУПОВ
	Гулара ЮСУПОВА



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ АДЕБИЯТ

Tursunova K.U. Fonetikani o'rganishda innovatsion usullarning roli va nutqni aniq hamda ravon shakllanish metodikasi	7
Yuldasheva Sh.Sh., Yusupova G.A. O'zbek tilini oliy ta'limda qardosh til sifatida o'qitishning ayrim masalalari	13
Yusupova G.A., Almambetova U.B. Metodlardan foydalanib qardosh tilli sinflarda o'zbek tili fonetikasini o'qitish	19
Oromova N.J. Adabiy ta'limda nazariy ma'lumotlar orqali hosil qilingan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish	24

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Xasanov E.Sh. Tabaqalashtirilgan ta'lim mexanizmlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari	30
Xasanov E.Sh. Tabaqalashtirilgan ta'lim yuzasidan xorij tajribalari	37
Yusupov U.K. Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy bilimlarini xorij tajribasi asosida rivojlantirish muammolari	44
Bobomurodov K. A. Pedagogik mahorat haqida tushuncha	49
Bobomurodov K.A. Pedagogik mahorat kursi vazifalari	56
Xamzayev X.X. Raqamli texnologiyalar asosida XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari	64
Abdusattorova Z.A. O'quvchilarni matematikadan muammoli masalalarni yechishga o'rgatish bo'lajak o'qituvchilar kasbiy rivojlanishining omili sifatida	74
Ishonkulov A.K. O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi sharoitida informal ta'limning samaradorligi: nazariy tamoyillar va amaliy yechimlar	81
Jo'rayeva G.A. Allomalarimiz fikrlari asosida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini va tafakkurini rivojlantirish	88
Karimova S.E. Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishning zamonaviy yondashuvlari va istiqbollari	92
Usmonova M.S., Usmonov E.H. "Oliy nerv faoliyati" mavzusini o'qitishda 5E ta'lim modeli asosida kolobrativ o'qitish texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	97
Nazirov U.Q. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish komponentlari	102
Ochilov A.E., Hamroyeva Sh.A. O'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini interfaol metodlar va texnologiyalar asosida rivojlantirish	107
Raxmanova M. Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	111
Islomov N.N. Ilmiy-didaktik atamalarining talabalar faoliyatidagi ahamiyati	123
Nomozov H.S., Obidov A.E. Raqamli ta'lim muhitida iot texnologiyalarining o'rni va pedagogik innovatsiyalar	126
Jumabayev A.D. Tarbiya fanida loyihaga asoslangan ta'limdan foydalanish bosqichlari	132
Dosbayeva Sh.A. Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etishda montessori pedagogikasining didaktik imkoniyatlari	139
Risnazarova A.R. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarining kommunikativ ko'nikmalarini oshirishning asoslari	143
Bo'ranova M. N. O'quvchilarda tabiatni muhofaza qilishning didaktik tamoyillarini takomillashtirish	148
Xakimov J.O., Xudoyorov S.S. Professional ta'limda innovatsion jarayonlar mohiyati	154
Xakimov J.O., Xudoyorov S.S. Talabalar intellekt turlarining rivojlanishi va kompetensiyalarining shakllanganligi	159
Mustapaqulov S.U. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda talabalarining kompetentligini rivojlantirish	164

G'ulomova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kompyuter o'yinlarining intellektual rivojlanishiga ta'siri	322
Alimova T. Hozirgi axborot asrida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	328
Азамов У. Бўлажак бошланғич таълим ўқитувчиларининг мультимедия технологиялари асосида интеллектуал қобилиятларни ривожлантиришнинг мазмуни	333
Abdusamiyev D.A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari	345
Абдусоитова С.Ф. Инклюзив таълим шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг коммуникатив кўникмаларини шакллантириш-педагогик муаммо сифатида	350
Tuychiyeva Z.B. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy salohiyatini oshirish yo'llari	359
Nosirova R.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv va metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	362
Norbo'tayeva I.Yu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida Tarbiya fanining o'qitilishida ekologik bilimlarning rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyalari	368
Тўлқинова Ф.А. Мактабгача ёшдаги болаларни кувноқ ўйинлар орқали жисмоний сифатларини ривожлантириш	376
Tuychiyeva Z.B. Zamonaviy tarbiyachi mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida tashkil etish yo'llari	380
Abdullayev A.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish yo'llari	384
Ilyosboyev S.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy harakatli o'ynlar vositasida axloqiy tarbiyalash	389
Турсуналиева Г.Б. Ҳаракатли ўйинлар воситасида мактабгача ёшдаги болаларни жисмоний сифатларини ривожлантириш	393
Маджитова С.С. Совершенствование педагогических механизмов развития творческих способностей у будущих воспитателей дошкольных учреждений	397

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Zoirova M.X. Musiqqa madaniyati darslarida integrallashgan ta'lim jarayonini tashkil etish xususiyatlari	403
Mirzayev S.O. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga ta'sviriy san'at fanini o'rgatishda uslubiy texnika sifatida foydalanish	410
Bekmuratov N.A. Tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda badiiy tafakkur elementlari o'rni	421
Каримова М.М. Обучение, воспитание и передача музыкального знания от старшего поколения к младшему	426

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Karamova M.F. Konfliktlarda talabalardagi nizoli xulq-atvorni boshqarishning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari	432
Ochilov O.N. Ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvining zamonaviy konsepsiyasi	436
Kusharbayev Dj.U., Bozorova L.A. Ingliz tilini o'rganishga doir o'quv yurtlari boshqaruvida rahbar va uning samarali faoliyati	442
Latipova M.X. Inklyuziv ta'lim sharoitida adabiyotni o'qitishning metodik va texnologik yondashuvlari	448
Joniqulov G. Professiogramma va kasbiy sifatlarning artpedagogik xususiyatlari	455



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARGA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Abdullayev A.A.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Bolalar sporti kafedrası
mudiri dots., p.f.f.d. (PhD)*

Tayanch soʻzlar: boshlangʻich sinf, tabaqalashtirish, jismoniy tarbiya, psixologiya, pedagogika, individual, harakat, meʼyorlash.

Ключевые слова: начальный класс, классификация, физическое воспитание, психология, педагогика, личность, действие, стандартизация.

Key words: primary school, differentiation, physical education, psychology, pedagogy, individual, movement, standardization.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада бошланғич синф ўқувчиларини жисмоний тарбия дарсларини табақали ёндашиш асосида ташкил этиш, унинг педагогик-психологик ҳамда физиологик томонлари борасида фикрлар баён этилган.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье представлены мысли об организации занятий по физическому воспитанию учащихся младших классов на основе классного подхода, его педагогических, психологических и физиологических аспектах.

SUMMARY:

In this article, thoughts on the organization of physical education classes for elementary school students based on a class approach, its pedagogical, psychological and physiological aspects are presented.

Uzuliksiz taʼlim tizimida boshlangʻich taʼlim asosiy boʻgʻin sifatida muhim oʻrin tutadi. Bu boshlangʻich taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya, sport sogʻlomlashtirish ishlarini rivojlantirish, taʼlim olayotgan oʻquvchilarning jismoniy tarbiyaga qiziqishini oshirish, bilimi, koʻnikma va malakalarini mustahkamlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Taʼlimda tabaqali yondashish kichik yoshdagi bolalarni birlashtiradigan boshlangʻich maktablarning darslarida, 1-4 sinflarda har xil guruhdagi oʻquvchilar bilan ishlashda juda katta ahamiyatga ega. Bir omilni amalga oshirishda bir xil yoshdagi maktab oʻquvchilarini guruhlarga ajratish talab



qilinadi. Tabaqali yondashish uslubini amalga oshirish jismoniy sifatlarni tarbiyalashga yordamlashadi, o'quv jaryoni samaradorligini oshirishga zamin yaratadi va jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga o'quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda o'quvchilarning jismoniy holatini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda tabaqali yondashish muammosi asosan, maktab o'quvchilari bilan ishlashga tegishli materiallardan iboratligi ko'rsatadi [3]. Tabaqali yondashish jismoniy tarbiyada faqat ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan tashqari, o'quvchilarni faollashtirish usuli hamdir. Shu sababli, u o'z vazifasini bajarishi, ya'ni o'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlashi, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiruvchi harakat omili bo'lib qolishi uchun muntazam ravishda qo'llanilishi, yetarli, mukammal va ixcham bo'lishi kerak.

Jismoniy mashqlarni bajarayotgan o'quvchilar organizmining o'sishi va rivojlanishiga, ularning individual jismoniy rivojlanish sur'ati va yo'nalishiga to'g'ri tanlangandagina rag'batlantiriladi, bunday bolalar boshqalarga nisbatan mashqlarni tanlash, ularni me'yorlashda shu sababli o'quvchilarga ko'proq e'tibor berishni talab qilishadi.

Olimlar va mutaxassislarning ko'rsatishicha, har xil hududlarda joylashgan shahar va qishloq o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bir xil emasligi aniqlangan[1].

Bolalar uchun jismoniy tarbiyaga bog'liq chora-tadbirlarni ishlab chiqish, mashg'ulotlar tashkil qilish va o'tkazishda ularning jinsiy farqini qat'iy hisobga olish kerak. Bu esa jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan mashqlarni me'yorlashda juda muhimdir.

Chex tadqiqotchisi Ray Xkoyta kichik maktab yoshidagi bir guruh bolalarni kuzatgan. Jismoniy yuklama xajmi hamma uchun bir xil edi, lekin 5 yildan keyin tekshirilganda, guruhlarda kuchli bolalar kuchli, kuchsizlari kuchsizligicha qolgani ma'lum bo'ldi. Bunday paytda o'quvchilarga tabaqali yondashishda mashq yuklamalarini me'yorlash zaruriyati tug'iladi. Har bir o'quvchining o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mo'ljali, jismoniy tarbiyada tabaqali yondashish muammosini oldinga suradi.

Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarga tabaqali yondashish masalalari ko'pincha mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Lekin hozirgi kungacha jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarga tabaqali yondashish uslubidan amaliyotda yetarlicha foydalanilyapti deb bo'lmaydi. O'quvchilarga tabaqali yondashishni to'g'ri tartibga solish shartlaridan biri tabaqali yondashish ayniqsa sog'lig'i, jismoniy tayyorgarligi bo'sh tibbiy guruhga kiritilgan, kasalligi bo'yicha darslarni qoldiradigan o'quvchilar uchun eng zarurdir.



О'quvchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashda tabaqali yondashgan vaqtda biz ularning rivojlanishi, harakat qobiliyatlarining har-xilligini etiborga olishimiz mashqlarning tuzilish mazmuni va shakllarini ham hisobga olgan holda qo'llashimiz zarur. Tabaqali yondashish harakat qobiliyatlarining rivojlanishi va pasayishini tubdan o'zgartiradi (bir rivojlanish darajasidan boshqasiga o'tganda). Ko'pincha bir xil jismoniy sifatlarning rivojlanishi boshqa sifatlarning rivojlanish sur'atini pasaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Tabaqali yondashish jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar harakatini maxsusligiga qarab guruhlariga ajratish, toifa mezonlariga erishish ehtimolini oldinga suradi. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarini, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni to'g'ri tashkil qilish maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishida yaxshi siljishlarga olib keladi, ularning o'zlashtirishi va intizomini yaxshilaydi.

Hozirgi vaqtda madaniy va jismoniy tarbiya ishlarini tashkil qilishda tabaqali yondashishning zarurligini isbotlashga ehtiyoj yo'q. Tabaqali yondashish tarbiyaviy ishlarda talab darajasida bo'lishi hamda o'quvchilarni o'zlashtira olmayotgan harakat ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shunga qaramay, xali ham tabaqali yondashishni amalga oshirish jiddiy to'siqlarga va qarama-qarshiliklarga uchramoqda. Tabaqali yondashish hamda aniq tasavvur xosil qilish uning muhim xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini ko'rsatib berish kerak.

Jismoniy tarbiya darslarida ta'lim va tarbiyani tashkil qilishni mukammallashtirish bilan bog'liq masalalarni ilmiy ravishda ishlab chiqish, tabaqali yondashish asosida har bir guruhda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish nihoyatda dolzarb vazifadir.

Ilmiy va uslubiy ishlari shuni ko'rsatadiki, shug'ullanuvchilarga tabaqali yondashishning muhimligiga qaramasdan, ko'pchilik hollarda bu ishga bir tomonlama yondashiladi[2]. Ilmiy tadqiqot natijalari, pedagogik amaliyotning ilg'or tajribalariga tayanib aytish mumkin: bolalarning sport tayyorgarligi faqat yoshlik davridagi rivojlanishiga qarab emas, balki individual farqlari, ya'ni tabaqali yondashish ko'rsatayotgan shaxsiy pedagogik ta'siriga asoslanishi kerak. Shu bilan birga, maktab o'quvchilari tipologik xususiyatlarining jismoniy sifatlari o'sishiga ko'rsatilgan kontingent uchun berilgan yuklamani hisobga olgan holda jismoniy tarbiyada tabaqalangan uslubiyot hali ishlab chiqilmagan. Jismoniy tarbiya darslarida ta'lim va tarbiya jarayonini optimallashtirishning muhim sharti bo'lgan tabaqali yondashish jismoniy tarbiya dars sifatini yaxshilash yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tabaqali va individual yondashish xarakteri shundan iboratki, o'quvchining o'zlashtirishini aniqlagan holda pedagog uning shaxsini, mijozini, xarakterini,



psixologik va jismoniy qobiliyatlarini, gavda tuzilishini, salomatlik holatini hisobga oladi. Baholashda tabaqali yondashish bilim va ko'nikmalarni egallash bosqichlarida turlicha talablarga javob berishini talab qiladi. Harakatlarni o'rganish bosqichida ko'nikmalarning mustahkamlanib borishiga qarab oddiy mashqlar tobora murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulotlarda o'quvchilar organizmini rivojlantirish uchun foydalaniladigan jismoniy yuklamalarni me'yorlashda ham tabaqali yondashishni hisobga olish kerak. Buni ko'pgina xorijiy va mahalliy mualliflar o'z ilmiy tadqiqotlarida tasdiqlashgan. Jismoniy tarbiya darslarida har xil yurak-tomir kasalliklari xavfining oldini olishda jismoniy yuklamalarning o'lchab berishga tabaqali yondashish sog'lomlashtirish samarasini oshiradi. Maktab yoshidagi bolalarni harakatlarga o'rgatish va shu tariqa harakat qobiliyatlarini tarbiyalashda tabaqali yondashishga amal qilish juda muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarni tipologik guruhlariga bo'lish dinamik xarakterga ega. O'quvchilarning harakat qobiliyatlarini yaxshilash davomida tipologik guruh azolari o'zgaradi. Harakat qobiliyatlari nisbatan sust bo'lgan o'quvchilar maqsadga yo'naltirilgan ish davomida harakat qobiliyatlari yuqori darajadagi guruhga o'tkaziladi.

Bundan tashqari, jismoniy tarbiya darslarida ko'zlangan maqsadga va har bir darsda qo'yilgan vazifaga ko'ra tipologik guruh tarkibi o'zgarishi mumkin. Bu qoidalar maktab o'quvchilariga tabaqali yondashishning shartlaridan biridir. Tabaqali yondashishni amalga oshirish uchun birinchi navbatda harakat xususiyatlarining shaxsiy (individual) ko'rsatkichlari, mushaklarning ish qobiliyatlari va maktab o'quvchilarining psixologik, pedagogik va klinik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarga tabaqali yondashish maxsus mashg'ulotlar va uy sharoitida shaxsiy (individual) topshiriqlarni bajarganda amalga oshiriladi. Shuningdek, bir xil yoshdagi va bir xil jismoniy rivojlanishga ega bo'lgan bolalarda harakat sifatlarining rivojlanishi ham bir xil emasligiga e'tibor qaratish lozim. Shuning uchun ba'zi bir orqada qolgan o'quvchilarning harakat sifatlarini rivojlantirish uchun shaxsiy (individual) dasturlar tuzish, ular bo'yicha mashqlar majmuasini ishlab chiqish jismoniy tarbiya darslarida sinfning har bir o'quvchisiga mashqlarni tabaqali yondashib o'rgatishni tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabaqalashtirish, ushbu tabaqalashtirish doirasida sinf o'quvchilari u yoki bu mezonlar bo'yicha bir nechta guruhga bo'lish jismoniy tarbiya ta'limi bo'yicha o'quv jarayonini tabaqalashtirishda quyidagi me'zonlar bo'yicha amalga oshiriladi:



- a) jismoniy tayyorgarlik;
- b) harakatli amallarning shakllantirish.

Ushbu mezonlarga mos holda jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida o'quvchilar quyidagi 2-3 guruhga bo'lish lozim:

- yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar;
- o'rtacha jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar;
- quyi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar.

Harakatli amallarni o'rgatishda o'quv materialining mazmuni hamma guruhdagi o'quvchilar uchun bir xillikda qoldirish. Ta'limning vositalari, shakllari va uslublarini tabaqalashtirish.

Xulosa tariqasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini aniqlab, ularga tabaqali yondashishga hamda individual qobiliyatiga qarab guruhlarga ajratib, me'yorlangan yuklama berishni maqsad muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бадаева З.Х. Методика занятий с девочками на уроках физической культуры в 5-7 классах сельских школ Узбекистана. Автореф. дис..., канд.пед.наук. , Т., 1994. 14-22 с.
2. Запорожанов А.В. «Индивидуализация специальной физической подготовки с учетом особенностей развития физических качеств спортсменов в современном пятиборье». Авт. дисс...к.п.н. - Минск – 1989 г. 24 с.
3. Фомин Н. А., Филин В. П. Возрастные основы физического воспитания. М., ФиС 1972. 174 с.